

**FRANSUZ FRAZEOLOGIK BIRIKMALARIDA ONOMASTIK
ELEMENTLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI****Kamolova Sanobar Jabborovna,***BuxDU Fakultetlararo chet tillar kafedrası dotsenti, f.f.b.f.d (PhD)*sanobar6399@mail.ru**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925760>

Annotatsiya. Ushbu maqolada onomastik birliklar ya'ni antroponimlarning frazeologik birikmalarda aks etishi va ularning xususiyatlari haqida bayon etilgan Frazeologik birikmalar tilda shakllanadi, ammo, tildan tashqari bo'lgan tarixiy, etnografik, folkloristik omillar bilan belgilanadi. Fransuz tilida antroponimlar nafaqat frazeologik birikmalar sifatida qabul qilinadi, balki milliy-madaniy ahamiyatga ega lisoniy unsurdir. Frazeologiya va tarix o'rtasidagi bog'liqlik xalq madaniyati, urf-odatlar va adabiyoti antroponim komponentli frazeologik birikmalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: antroponim, tarjima, frazeologik birikma, milliy-madaniy, lingvistik, leksik-semantik, tarixiy, etimologik.

Аннотация. В данной статье описывается отражение ономастических единиц, то есть антропонимов, во фразеологических единицах и их характеристики. Фразеологические единицы формируются в языке, но определяются историческими, этнографическими и фольклористическими факторами, находящимися вне языка. Во французском языке антропонимы воспринимаются не только как компонент фразеологических единиц, но и как лингвистический элемент национального и культурного значения. Связь между фразеологией и историей отчетливо видна во фразеологических единицах с антропонимическим компонентом, являющихся частью народной культуры, традиций и литературы.

Ключевые слова: антропоним, перевод, фразеологическая единица, национальный и культурный, лингвистический, лексико-семантический, исторический, этимологический.

Abstract. This article describes the reflection of onomastic units, or anthroponyms, in phraseological units and their characteristics. Phraseological units are formed within language but are determined by historical, ethnographic, and folkloristic factors outside of language. In French, anthroponyms are perceived not only as a component of phraseological units but also as a linguistic element of national and cultural significance. The connection between phraseology and history is clearly evident in phraseological units with an anthroponymic component, which are part of folk culture, traditions, and literature.

Keywords: anthroponym, translation, phraseological unit, national and cultural, linguistic, lexical-semantic, historical, etymologic.

Kirish. Tilshunoslikning eng asosiy yo'nalishlarida biri bu – onomastika bo'lib, bir qancha bo'limlarni o'z ichiga oladi. Onomastik birliklar deganda, albatta, antroponimlar nazarda tutiladi. Antroponim yunoncha, “anthropos” – odam, shaxs, “onoma” – nom, ya'ni shaxs nomlarini o'rganuvchi bo'limdir. Antroponimli frazeologik birikma – tarkibida shaxs nomi (ism, familiya, taxallus) qatnashadi. Frazeologik birlik – tarkibiy qismlari erkin almashtirilmaydigan, ko'chma ma'noga ega, nutqda tayyor holda qo'llanadigan barqaror birikmadir. Antroponimli frazeologizmlar milliy-madaniy kodni saqlaydi. Ular ko'pincha baholovchi (ijobiy/salbiy) semantikaga ega. Onomastik birliklar ma'lum bir shaxs yoki joyga murojaatni aniq belgilaydi, shuningdek til boyligi va kontekstual axborotni jamlaydi. Fransuz tilshunoslaridan biri Charles Bally frazeologiyani stilistika

bilan bog‘liq holda o‘rgangan va barqaror birikmalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlariga e‘tibor qaratgan [8.65]. Masalan, “Alpomishdek yigit” deganda o‘zbek xalqining mard, jasur o‘g‘loni ko‘zda tutiladi. Fransuz tilida “Le talon d’Achille” – zaif joy; “Le fil d’Ariane” – yo‘l ko‘rsatuvchi vosita; “Un travail de Sisyphe” – behuda mehnat, deb tushuniladi. Bunday misollarni biz ushbu maqolaning asosiy qismida ko‘rib chiqishni va tahlil qilishni joiz deb topdik.

Adabiyotlar tahlili. V.A.Maslova, Z.Cherdanseva, A.Mamatov kabi tilshunolar frazeologik birikmalarning ma‘nosi, tabiati til sohibining fanga oid qo‘shimcha) bilimlari, shaxsning amaliy tajribasi, shuningdek, shu tilda (so‘zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an‘analari bilan uzviy bog‘liqligini tahlil qildilar [1.58]. V.A.Maslova ta‘kidlaganidek, aksariyat frazeologizmlarning ichki shaklida ularga milliy-madaniy rang beruvchi ma‘nolar mavjud [2.198]. Bu esa ismlarning har biri til sohiblari ongida muayyan madaniy tushunchalarning paydo bo‘lishiga olib keladi. T.Z.Cherdanseva esa har qanday tilning frazeologik birliklarini “til egalarining dunyoqarashi, milliy madaniyati, urf-odatlarini, e‘tiqodi, tasavvur va tarixini aks ettiruvchi qimmatli merosi” deb hisoblaydi [3.46]. Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik birikmalarni tadqiq etish til tizimi va nutq amaliyoti o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni hamda til va madaniyat integratsiyasini anglashga yordam beradi. Badiiy matnda frazeologik birliklar obraz yaratish, xarakter ochish va muallifning estetik pozitsiyasini ifodalashda muhimdir. Alisher Navoiy asarlarida xalqona iboralar poetik mahorat bilan qo‘llanib, milliy obrazlilikni kuchaytiradi. Jahon adabiyotida ham frazeologik birliklar qahramon nutqini individuallashtirish va madaniy kontekstni ochishda faol ishtirok etadi. Onomastik birliklar tilshunoslikda chuqur o‘rganilishi lozim. Ular nafaqat til birliklari sifatida ma‘no tashuvchi elementlar bo‘lib xizmat qiladi, balki nutqning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini ham boyitadi. Ularning frazeologik birliklar bilan integratsiyasi tilning ekspressiv-stilistik imkoniyatlarini oshiradi va tilni tadqiq etishda yangi metodologik yondashuvlar ochadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Fransuz tilidagi antroponimli frazeologik birliklar semantik, etimologik hamda konnotativ jihatdan tahlil qilinib, ularning tarixiy va madaniy asoslari aniqlashtirildi. Shuningdek, misollar asosida onomastik komponentlarning metaforizatsiya, umumlashuv va desemantizatsiya jarayonlari o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar. Fransuz frazeologiyasida frazeologik birliklarning tarkibiy komponenti sifatida xizmat qiladigan hamda o‘z davrining mashhur shaxs nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan real antroponimlar salmoqli o‘ringa ega. Bundan tashqari “Un quart d’heure de Rabelais” frazeologik birikmasida e‘tibor qaratsak, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi, balki o‘quvchilar bunday frazeologik birliklarni boshqa yashirin ma‘nolari borligini bilmaydi va qiyinchilik uyg‘otadi. Bu frazeologik birlikni “Rabelening chorak minuni”, deb emas, balki insonning qarzdor bo‘lganida o‘sha qarzni o‘z vaqtida qaytarib

berolmaganini(vaqtini tez yetib kelganini) tushunish uchun ishlatiladi. Chunki frazeologik birliklar tarkibida yashirin, semantik va ijobiy ma'nolar yashirin bo'ladi. Bu borada fransuzcha frazeologizmlardan misollar keltiramiz. "Faire Charlemagne" – g'alaba qozongandan keyin o'yinni tark etmoq. "Au temps où Berthe filait" – qadim zamonda. "Tranquille comme Baptiste" – juda xotirjam. "Ane de Buridan" – beqaror odam. "Signé Canrobert "hammasi yaxshi (kinoya tarzida). être sorti de la côté de Charlemagne – nasl-nasabi qirollardan (aslzoda) bo'lmoq. Yana shunday fransuzcha frazeologik birlik mavjudki, u taxminan 600–639-yillarda ko'p ishlatilgan. Merovinglar sulolasining qiroli Dagobert I ga tegishli, ya'ni bu – au temps du roi Dagobert – qadim zamonlarda (so'zmaso'z tarjimasini: qiroli Dagobert davridan) iborasidir. Une Pénélope – sodiq, uzoq vaqt kutib turgan xotin; un Apollon – juda chiroyli, ideal erkak. Yunon mifologiyasidagi Apollondan hosil bo'lgan frazeologizm tajovuzkor kuchli go'zallik timsoli sifatida ishlatiladi. O'zbek tilida ham bunday frazeologik birliklar ishlatiladi. Masalan, Amir Temur davridan qolgan, Almisoqdan qolgan, yoki bobom zamonidan qolgan kabi. Tranquille comme Baptiste (so'zlashuv tilida) – juda xotirjam iborasini olsak, Baptist ismli bir aktyor bo'lgan. U sodda odam obrazini mukammal ijro etib, barcha parijliklarni kuldirib yurgan. Shunda parijliklar sodda va go'l inson obrazidagi Baptistga havas qilib, "Oh, qachon biz ham Baptiste kabi xotirjam bo'lamiz?" deb aytishni odat qilishgan. "Avoir un cœur d'artichaut" – bu frazeologik ibora oson sevib qoladigan shaxsni anglatadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqi orasida bu ibora ko'pincha "har kimga tez ishonadi", "oson yurak beruvchi", "ko'ngli yupqa" singari ishlatiladi. Bu iborada bevosita shaxs ismi bo'lmasa antroponimga yaqin frazeologik funksiyani bajaradi, u odatda inson sifatini tasvirlaydi va ko'pincha ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq bo'ladi. Onomastik birliklar frazeologik birikmalarda kommunikativ funksiyani, semantik-madaniy funksiyani hamda estetik funksiyani bajaradi. Viktor Gyugo (Victor Hugo)ning "Les Misérables" romanida "Patron-Minette" deb ataladigan jinoyatchilar guruhi mavjud. Biroq bu shaxs nomi kabi ko'rinadi. Bu nom anonim shaxslar guruhiga nisbatan barqaror belgini beradi va kontekstga qarab ijtimoiy xulqni ramziy **element sifatida** tahlil qilinadi. Patron-Minette" individual shaxs emas, balki "association de malfaiteurs" – ya'ni bu gapga nomning antroponimik shakli semantik jihatdan kollektiv obrazga ko'chgan. Yana bir joyda Hugo ushbu guruh a'zolarini alohida laqablar bilan tilga oladi (Babet, Claquesous, Montparnasse, Gueulemer), biroq ularni umumlashtiruvchi nom sifatida "Patron-Minette" ishlatiladi. "Ces quatre hommes formaient la société dite Patron-Minette" [10.190]. Hugo jinoyatchilarni shunchaki kriminal tip emas, balki jamiyatning mahsuli sifatida tasvirlaydi. Shuning uchun "Patron-Minette" nomi frazeologik-onomastik birlik sifatida ijtimoiy xulq modelini ifodalovchi ramziy belgi vazifasini bajaradi. "Patron-Minette" misolida onomastik elementning: individual nom shaklida bo'lsa-da kollektiv ma'noda qo'llangan.

Onomastik elementning semantik xususiyati: Identifikatsiya va kodlash: Onomastik frazeologizmi tilga va madaniyatga xos belgiga aylantiradi (masalan, tarixiy shaxsga

ishora). Metaforik kod: Nom ma'lum xususiyatlarni belgilovchi metaforaga aylanishi mumkin. Ekspressiv-stilistik ta'sir: Barqaror iboraning ifodaviy kuchi kuchayadi yoki ma'no nozikligi oshadi. Onomastik komponent semantik jihatdan quyidagi jarayonlarni boshdan kechiradi. Desemantizatsiya – asl tarixiy shaxsga ishora zaiflashadi. Generalizatsiya – nom umumiy belgi ifodalaydi. Metaforizatsiya – obrazli ma'no ustuvor bo'ladi. Fransuz frazeologiyasida onomastik birliklar milliy madaniyat bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, fransuz adabiyoti va tarixidagi shaxslar nomi iboralarda keng qo'llanadi. 1. Riche comme Crésus – “nihoyatda boy”. Bu ibora qadimgi Lidiya podshohi Croesus nomiga borib taqaladi [5.14]. 2. Fort comme Hercule – “juda kuchli”. Bu yerda mifologik qahramon Hercules obrazidan foydalanilgan. 3. Paris vaut bien une messe – tarixiy ibora bo'lib, Henri IV ga nisbat beriladi. Bu birliklar fransuz xalqining tarixiy xotirasi va kollektiv ongida shakllangan konseptual stereotiplarni aks ettiradi. Fransuz frazeologik tizimida onomastik elementlar nominativ ma'nodan konnotativ ma'noga o'tadi, metaforik va ekspressiv kuchni oshiradi, milliy madaniyat va tarixni aks ettiradi, stereotip va konseptual model yaratadi. Fransuz frazeologik birikmalarida onomastik elementlarning semantik xususiyatlari fransuz tilining lingvokulturologik boyligini namoyon etuvchi muhim qatlam hisoblanadi.

Xulosa. Onomastik birliklarning frazeologik birikmalarda qo'llanilishi tilning madaniy va ma'naviy qatlamlari bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Atoqli otlar frazeologizm tarkibiga kirganda o'zining dastlabki nomlash vazifasidan chetlashib, umumlashgan, ramziy va baholovchi ma'no kasb etadi. Natijada, konkret shaxs, joy yoki tarixiy obraz nomi tilda muayyan xarakter, sifat yoki holatni ifodalovchi obrazli vositaga aylanadi. Umuman olganda, onomastik birliklarning frazeologik birikmalarda qo'llanilishi tilning boyligi, obrazlilik va milliy o'ziga xosligini namoyon etuvchi muhim omil hisoblanadi. Mazkur masalani o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika (lingvomadaniyatshunoslik asoslari) – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. –168 b.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: 2001. – 208 с.
3. Черданцева Т.З. Идиоматика и культура. // Вопросы языкознания, 1996, – № 1. – С. 58–70.
4. Xolmatov O. Onomastika va frazeologiya: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: NMIU, 2018.
5. Bally, Charles. Traité de stylistique française. – Heidelberg: Carl Winter, 1909. – 2 vols., 376 p.
6. Rey, Alain; Chantreau, Sophie. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Le Robert, 1997. – 1086 p.
7. Guiraud, Pierre. Les locutions françaises. – Paris: Presses Universitaires de France, 1961. – 127 p.
8. Gross, Gaston. Les expressions figées en français. – Paris: Ophrys, 1996. – 214 p.
9. Ullmann, Stephen. Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. – Oxford: Basil Blackwell, 1962. – 278 p.
10. Hugo, Les Misérables, 1862, III qism, VIII kitob.